



Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining
2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli buyrug'i

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA'LIM VAZIRLIGI**

_____ viloyati/ Respublikasi

_____ tumani (shahar)

_____ maktabning

10 - “_____” - sinf rahbari

_____ ning

F.I.O

20____/20____ - o'quv yili boshlang'ich sinflar uchun

SINF RAHBARI DAFTARI

Mazkur daftar sinf rahbarlari tomonidan qog'oz yoki elektron ravishda yuritilishi mumkin.


Sinf rahbari daftariga ijodiy yondashilgan holda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

Ushbu daftarning yuritilishi maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan o'quv yilining har bir choragi yakunida nazorat qilinadi.

2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli buyrug‘iga asosan Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida
o‘quvchi-yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil qilish va samaradorligini oshirish
bo‘yicha sinf rahbarlari uchun
USLUBIY QO‘LLANMASIDAN OLINGAN
Sinf rahbar daftarining 20__-20__-o‘quv yili uchun hujjatlar ro‘yhati

1. Sinf rahbari to‘g‘risida umumiy ma‘lumot
2. O‘quvchilarning milliy vatanparvarlik darajasini baholash tizimi
3. O‘quvchilar davomatini yuritish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma
4. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida nizom
5. Sinf rahbarining vazifalari
6. Sinf rahbari lavozim yo‘riqnomasi 2024-yil 17-apreldagi 122-buyruq
7. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sinf rahbarlarining yillik faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari
8. Yil nomlari
9. 666-qaror sharhi 2022-yil kiritilgan o‘zgarishi bilan
10. Xavfsizlik texnikasi qoidalari
11. Sinf soati ish rejasi
12. Ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar rejasi
13. Sinf rahbarining 20__-20__-o‘quv yili uchun mo‘ljallangan yillik ish rejasi
14. Sinf o‘quvchilari haqida umumiy ma‘lumot
15. Sinf faollari haqida umumiy ma‘lumot
16. Sinfning ijtimoiy xaritasi
17. Takomillashtirilgan odob-axlo qoidalari 2023-yil 31-avgustdagi 282-son buyruq
18. Kam ta‘minlangan oilalar ro‘yhati
19. To‘liq bo‘lmagan oilalar ro‘yhati
20. Yetim va ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari
21. Sinf o‘quvchilarining to‘garak va seksiyalarga qatnashish darajasi
22. Ota-onalar bilan ishlash monitoringi
23. 20__-20__-o‘quv yiliga mo‘ljallangan sinf ota-onalar majlislar rejasi
24. Ota-onalar majlisi bayonnomasi
25. Sinf rahbarining 20__-20__-o‘quv yiliga mo‘ljallangan sinf majlislari rejasi
26. IIB profilaktika ro‘yxatida turadigan o‘quvchilar ro‘yhati
27. Maktab ichki ro‘yxatida turadigan o‘quvchilar ro‘yhati
28. Kundalik daftar yoki kundalik.com nazorati
29. O‘quvchilarning kitob bilan ta‘minlanganligi

ZAMONAVIY SINIF RAHBARINING KASBIY PORTRETI:



SINF RAHBARLIGIGA TANLOVNING ASOSIY MEZONLARI

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan
- maktabda asosiy xodim sifatida faoliyat olib borayotgan;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- umumta'lim muassasalarida soatbay (shu jumladan o'rindoshlik] asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarga sinfga rahbarlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga birlashtirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi

SINF RAHBARLARINING ASOSIY VAZIFALARI:

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;
- ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi o'quvchilarning amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish

Sinf rahbarlari o‘zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o‘quvchilarining qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;
- pedagog jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo‘lga qo‘yish
- ertalabki saflanishlarda sinf o‘quvchilarining belgilangan tartibda to‘liq ishtirok etishlarini ta'minlash
- biriktirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
- sinf rahbarlari o‘z faoliyatini o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi

FAOLIYAT YO‘NALISHLARI

Vatanparvarlik ruhida arbiyalash

- o‘quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- o‘quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini singdirish
- sinfdagi o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish
- topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish
- o‘quvchilarni o‘zbek va boshqa xalqlarning madaniy, milliy an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash

Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish
- o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilash

O'quvchilarning milliy vatanparvarlik darajasini baholash tizimi

O'quvchilarning milliy vatanparvarlik darajasi **vatanparvarlik** (O'zbekiston va davlat ramzlari haqidagi tushunchalar, buyuk va ma'rifatparvar ajdodlar tarixini bilish darajasi), **milliy odoblilik** (urf-odatga hurmat, milliy qadriyatlarni hurmat e'zozlash, madaniy meros va tabiatni asrab-avaylash), **milliy g'urur** (til va madaniyatiga bo'lgan hurmat, o'zligi, tarixidan faxrlanish, zamonamiz milliy qahramonlaridan o'rnak olish), **vijdonylik** (rostgo'ylik, yaxshi xulq, halollik, do'stlik, ustozga va onaga hurmat, barchani teng ko'rishlik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik), **milliy g'oyaga sadoqat** (vatan butunligini anglash, yot g'oyalarga nisbatan immunitetni shakllantirish, milliy davlatchilik g'oyalarga sadoqat, insonparvarlik) kompetensiyalari asosida **1-10 ballik tizimda** baholanadi.

1. Sinf ko'rsatkichini hisoblash uchun sinfdagi o'quvchilar to'plagan ballar yig'indisi sinfdagi jami o'quvchilar soniga bo'linadi.

S_k - sinf ko'rsatkichi

Σ - yig'indi

O'TB - o'quvchilar to'plagan ballar

JO'S - jami o'quvchilar soni

$$S_k = \frac{\Sigma O'TB}{JO'S}$$

2. Maktab ko'rsatkichini hisoblash uchun maktabdagi sinflar to'plagan ballar yig'indisi maktabdagi jami sinflar soniga bo'linadi.

M_k - maktab ko'rsatkichi

Σ - yig'indi

STB - sinflar to'plagan ballar

JSS - jami sinf soni

$$M_k = \frac{\Sigma STB}{JSS}$$

3. Tuman (shahar) ko'rsatkichini hisoblash uchun tuman (shahar)dagi maktablar to'plagan ballar yig'indisi tuman (shahar)dagi jami maktablar soniga bo'linadi.

$T(Sh)_k$ - tuman (shahar) ko'rsatkichi

Σ - yig'indi

MTB - maktablar to'plagan ballar

JMS - jami maktablar soni

$$T(sh)_k = \frac{\Sigma MTB}{JMS}$$

4. Viloyat ko'rsatkichini hisoblash uchun viloyatdagi tuman (shahar)lar to'plagan ballar yig'indisi viloyatdagi jami tuman (shahar)lar soniga bo'linadi.

V_k - viloyat ko'rsatkichi

Σ - yig'indi

$T(Sh)TB$ - tuman (shahar)lar

to'plagan ballar

$JT(Sh)S$ - jami tuman (shahar)lar soni

$$V_k = \frac{\Sigma T(Sh)TB}{JT(Sh)S}$$

5. Respublikada viloyatlar ko'rsatkichi bo'yicha tegishli o'rinlarga ega bo'ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar davomatini yuritish tartibi to‘g‘risida

YO‘RIQNOMA

Mazkur yo‘riqnoma umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilar davomatini yuritish, dars mashg‘ulotlariga sababsiz kelmayotgan yoki muntazam ravishda qatnashmayotgan o‘quvchilarni aniqlash, hisobotini yuritish va ularni ta’limga jalb qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu yo‘riqnoma Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi barcha turdagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun majburiy hisoblanadi.

2. Mazkur yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

Darslarga kelmaslik – darslar uchun belgilangan vaqtlarda (kun, hafta davomida) ishtirok etmaslik;

Sababli ravishda darslarga qatnashmaslik, dars qoldirish, darslarga (soat, kun, hafta davomida) qatnashmaslik, sog‘ligi tufayli (tibbiy ma’lumotnoma asosida), favqulodda va boshqa holatlarda darslarga sababli kechikish, darslarda (soat, kun, hafta davomida) qisman yoki to‘liq qatnashmaslik — ta’lim muassasasi rahbariyatining (direktor, direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlari yoki o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari), sinf rahbarining ruxsati bilan, ota-onasining (ularning o‘rnini bosuvchi shaxsning) og‘zaki va yozma murojaatiga ko‘ra amalga oshirilishi;

Sababsiz ravishda darslarga kechikish, dars qoldirish, darslarga (soat, kun, hafta davomida) qatnashmaslik yuqorida 3-xatboshida ko‘rsatilgan sabablar bo‘lmagan hollarda darslarga qisman yoki to‘liq qatnashmaslik;

Muntazam dars qoldirish – sababsiz ravishda bir o‘quv haftasida 3 kun va undan ortiq, bir oy mobaynida 10 kun va undan ortiq dars mashg‘ulotlariga uzluksiz qatnashmaslik.

2-bob. O‘quvchilar davomatini yuritish

3. Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining davomati har bir sinf, maktab, tuman (shahar) viloyat va Respublika miqyosida yuritiladi.

4. O‘quvchilar davomati sinf rahbari tomonidan elektron sinf jurnalida quyidagi tartibda qayd etiladi:

a) sababsiz:

s- sababsiz dars qoldirganligini ko‘rsatish uchun;

m- surunkali dars qoldirayotganligini ko‘rsatish uchun;

ch- respublikadan tashqariga ruxsatsiz chiqib ketganligini ko‘rsatish uchun;

q- ta’lim olishga ota-onasi qarshilik qilayotganligini ko‘rsatish uchun;

ns- ota-ona nazoratsizligi sababli darsga kelmaydiganligini ko‘rsatish uchun;

b) sababli:

dq- sababli dars qoldirilganligini ko‘rsatish uchun;

k- kasallik sababli dars qoldirganligini ko‘rsatish uchun;

kq- darsga kechikib kelganligini ko‘rsatish uchun;

tq- turmushga chiqqanligi tufayli darsga kelmaydiganligini ko‘rsatish uchun belgilanadi.

5. Fan o‘qituvchilari tomonidan o‘quvchilarning darsdagi davomatlari dars boshlanishida onlayn tarzda quyidagi tartibda qayd etiladi:

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-son
buyrug‘iga 7-ilova
“Tasdiqlayman”**

Maktab MMIBDO‘: _____

**“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 20__-20__-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi
10–SINF**

№	O‘tiladigan mavzular	Soati	Rejada	Amalda
1.	Bir bo‘lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!	1		
2.	Kasb va inson temperamentini	1		
3.	Munosib hayot formulasi.	1		
4.	Ustoz otangdek ulug‘. (1 oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5.	Zamonaviy mehnat bozori	1		
6.	Ona tili – qalb ko‘zgusi.	1		
7.	Halollik qadriyatlarini.	1		
8.	Ijtimoiy intellekt.	1		
9.	Ijobiy fikrlash va o‘z kuchiga ishonish.	1		
10.	Bulling, zo‘ravonlik va qonun .	1		
11.	Zamonaviy kasblar, kasbiy faoliyat.	1		
12.	Vatan oldidagi burch va mas‘uliyat.	1		
13.	Konstitutsiya – huquqlarimiz kafolati	1		
14.	Yaxshi kasbga ega bo‘lish (trening mashg‘uloti)..	1		
15.	Eng buyuk jasorat – ma‘naviy jasoratdir.	1		
16.	Ishga yollash va ekspluatatsiya shakllari Migratsiya.	1		
17.	Tinchlik uchun barcha mas‘ul.	1		
18.	Media immunitetni nima?	1		
19.	Diniy ekstremizm va terrorism.	1		
20.	Biz hayotni tanlaymiz.	1		
21.	Inson hayotida zararli odatlar.	1		
22.	Muammoli vaziyatlar: nima muammo bo‘lishi mumkin va bunday vaziyatda nima qilish lozim?	1		
23.	Ayolga ehtirom!.	1		
24.	Gender munosabatlar.	1		
25.	Milliy qadriyatlar va an‘analarimiz	1		
26.	Amir Temur hayoti bizga o‘rnak (Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
27.	Ijobiy fikrlash. Hayotda o‘z xohishlarimizni anglash.	1		
28.	Yetakchilik qobiliyatlarini.	1		
29.	Ijobiy fikrlash va o‘z kuchiga ishonish.	1		
30.	Xotira abadiy, inson qadri buyukdir	1		
31.	Taym-menedjment nima?	1		
32.	Yoshlarning ota-ona, oila hamda mahalla oldidagi burch hamda majburiyatlarini.	1		
33.	Shaxsiy kasbiy reja.	1		
34.	Taqdimot qilish ko‘nikmalari.			

**___-Umumiy o‘rta ta’lim maktabida 20__-20__-o‘quv yilida o‘tkaziladigan
ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasi**

t/r	Tadbir nomi	Sinflar kesimida	Tadbir mazmuni
Sentabr -O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini madh etish oyligi			
1-hafta			
1.	“Bir bo‘lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - Vatanimiz!” haftaligi	10-sinf	Mustaqillik darslarida O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, bunyodkorlik ishlari va ulkan islohotlar to‘g‘risida tushunchalar berish. Maktab ichki tartib va odob-ahloq qoidalari
2 hafta			
2.	“Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun!” haftaligi	10-sinf	“Yangi O‘zbekiston uchun mening hissam” nomli chellenjlar tashkil etish.
3-hafta			
3.	“Teatr- bu ibratxonadir” haftaligi	10-sinf	“Turon” maktab teatri jamoasi tomonidan mumtoz adabiyot namunalaridan sahna ko‘rinishlari namoyishini uyushtirish.
4-hafta			
4.	“Jadidlar izidan” haftaligi	10-sinf	Yozuvchilar, ijodkorlar, shoir va adiblar hamda zamonamiz kahramonlari bilan ijodiy kechalar tashkil
5.	Topshiriqlar asosida	10-sinf	“Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazish (PQ-92 20.01.2022-yil.). Sinf va maktab sardorlari saylovini tashkil etish (PF-6155, 03.02.2021-y.) (vazirlik tomonidan nizom taqdim etiladi). “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarini o‘tkazish.
Oktabr - Ustoz va murabbiylarni ulugiash oyligi			
1-hafta			
6.	“Ustozga ehtirom!” haftaligi	10-sinf	“Men o‘qituvchi bo‘laman” mavzusida o‘quvchilar tomonidan ochiq darslar o‘tkazish (fan o‘qituvchilari nazoratida o‘quvchilar tomonidan o‘z sinfiga dars
2-hafta			
7.	“Qatag‘on qurbonlarini yod etish” haftaligi	10-sinf	“Tarixiy xotira, ma’naviy va ruhiy tarbiya — Yangi O‘zbekiston poydevori” shiori ostida xotira va qadrlash mavzusida tadbirlar tashkil etish (PQ-270, 19.07.2024-yil). “Huquqiy-ma’rifiy bilimdon” ijodiy ko‘rik-tanlovini o‘tkazish (PF-5618, 09.01.2019-yil, vazirlik tomonidan nizom taqdim etiladi).
3-hafta			
8.	“Adabiy-ma’rifiy va sport” haftaligi	10-sinf	“Uch avlod uchrashuvi”ni o‘tkazish. (PQ -92, 11.03.2023- yil’.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

88 listdan iborat 10-sinf rahbar daftarini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

Plastik egasi **Nabiyev Zokirjon**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!

Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Darsliklarning elektron varianti**
- 9. Maktab ish hujjatlari**
- 10. Direktor ish hujjatlari**
- 11. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 12. O'IBDO' ish hujjatlari**
- 13. Psixolog hujjatlari**
- 14. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 15. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 16. Besh tashabbus hujjatlari**
- 17. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**